

Israil Mukaddas Irgashevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori

Annotatsiya. Gazeta-publitsistik uslubida ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishi, taraqqiyoti ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ilmiy va siyosiy jaryonlardagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi va global sahnada o‘z mavqeini mustahkamlash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq siyosiy istiqloq g‘oyalarning keng targ‘iboti va demokratik islohotlarning amalga oshirilishi tilda ham o‘z aksini topayotgani, ijtimoiy-leksika tufayli til barqaror va dinamik rivojlanib, yangi siyosiy va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik kasb etayotganining gazeta matnlarida voqelanishi ochib berilgan.

Kalit sozlar: gazeta matni, jamoatchilik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy leksika, leksik birliklar, publitsistik maqola, siyosiy diskurs, siyosiy terminlar, so‘zlashuv nutqi, til taraqqiyoti.

Tilshunoslikda “ijtimoiy-siyosiy leksika” ta’rifiga turli yondashuvlar mavjud. Ba’zi olimlar unga “ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar majmui” deya ta’rif beradi. Professor H.Dadaboyev ijtimoiy-siyosiy sohaga oid lug‘aviy birliklarni terminologik nuqtayi nazardan tadqiq qilib, quyidagicha ta’rif beradi: “... ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo‘llanuvchi qatlamlaridan biri bo‘lib, u ma’lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh faktorlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi”. Mavzuviy jihatdan ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiya nihoyatda turlicha. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi matnlar harbiy soha, diplomatiya, saylov tizimi, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, jamoatchilik faoliyati kabilarga aloqador leksika va terminologiyani o‘zida qamrab oladi.

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning o‘ziga xos xususiyati – ularning aniq siyosiy yo‘nalishi bo‘lib, u orqali hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxsning prinsipial pozitsiyasi yoki, aksincha, muxolifatdagi hokimiyatda namoyon bo‘ladi. Ularda partiya va boshqa jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, siyosiy rahbarlar va ularning muxoliflari faoliyati aks ettiriladi. Ijtimoiy-siyosiy leksika siyosiy jarayonlar, qarashlar, ma’naviyat, qadriyatlar hamda mafkurani ifodalash vositasi vazifasini o‘taydi. U ishonitirish, jamoatchilik fikriga ta’sir qilish va ommani boshqarishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Rus tilshunos olimi Y.V.Chubukova ijtimoiy-siyosiy leksikani quyidagi guruhlariga bo‘ladi:

- rasmiy hujjat materiallari (konstitutsiyalar va qonun chiqarish aktlari, nizomlari, partiyalar nizomi, diplomatik hujjatlar – notalar, deklaratsiyalar, bitimlar, shartnomalar va h.k.);
- axborot-tavsifiy materiallar (axborot qaydnomalari, ma’lumot beruvchi materiallar, tarixiy tavsiflar, biror-bir hodisa yuzasidan umumlashtiruvchi qisqacha ma’lumot xususiyatiga ega maqolalar, muammoli tematik maqolalar va h.k.);
- tor ma’nodagi publitsistik maqolalar (munozarali maqolalar, pamfletlar, nutqlar va h.k.).

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya sohasida tushunchalarni aniq va ravshan ifodalashga va axborotni yetkazishga yordam beruvchi maxsus leksika qo‘llaniladi. Bu axborot almashish va muhim voqea, qarorlarni tushunish uchun muhimdir. Rasmiy hujjat materiallariga

maxsus terminologiyaning ko'pligi, realiyalarning qo'llanilishi, o'ziga xos turg'un nutq iboralari (klishe)ning ishlatilishi xosdir. Axborot tavsifiy materiallar joriy siyosiy hodisalar bilan bog'liq termin, realiya, sitata, leksika va iboralarni o'z ichiga oladi. Publitsistik materiallarda (tor ma'noda) erkin so'z va hikmatli gaplar ishlatiladi.

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning lingvistik tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu turdagi matnlarda o'quvchilarning ta'sirini oshirish va ko'proq tushunish uchun ishlatiladigan quyidagi leksik birliklar mavjud:

- 1) Siyosiy va davlat hayoti bilan bog'liq maxsus tushunchalar;
- 2) Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va mafkuraviy tushunchalarni aks ettiruvchi neologizmlar, o'zlashmalar;
- 3) So'zlashuv nutqining so'zlari va iboralari;
- 4) Bir tildan boshqa tilga tarjima qilingan murakkab so'zlar;
- 5) Bir tildan boshqa tilga tarjima qilingan frazeologik birliklar;
- 6) Qisqartmalar;
- 7) Frazeologik kombinatsiyalar va iboralar;
- 8) Majoziy taqqoslashlar, metafora, ironiya elementlari;
- 9) Takliflar, boshqa odamlarning bayonotlarini taqdim etish;
- 10) Ijobiy yoki salbiy hissiy rangga ega so'zlar;
- 11) Neytral va stilistik belgilangan so'zlar.

Gazeta-publitsistik uslubida ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishi, rivojlanishi turli jarayonlar, jumladan, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ilmiy va siyosiy jaryonlardagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Albatta, gazeta-publitsistik uslub zamonaviy siyosiy voqealar va jarayonlarni aks ettirishga intiladi. Shuning uchun mualliflar ko'pincha hozirgi hodisalar, tendensiyalarni aks ettiruvchi yangi tushuncha va terminlardan foydalanadilar. Bu esa ushbu tushunchalarni gazeta tilida voqelanishiga sabab bo'ladi. Masalan, "parlament" – "парламент", "Senat" – "Сенат", "Oliy Majlis" – "Олий Мажлис"; "Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi" – "Законодательная палата Олий Мажлиси"; "ijtimoiy masofa" – "социальная дистанция", "barqaror rivojlanish" – "устойчивое развитие", "pragmatik ruh" – "прагматический дух"; "tashqi siyosiy maydon" – "внешнее политическое поле"; "barqaror holat" – "устойчивое состояние"; "iqtisodiy sherikchilik" – "экономическое партнёрство"; "siyosiy va iqtisodiy tobelik" – "политическая и экономическая зависимость"; "mintaqa davlatlari" – "региональные государства"; "so'z erkinligi" – "свобода слова"; "islohotlar modeli" – "модель реформ"; "izchil siyosat" – "последовательная политика"; "keng ko'lamlı islohatlar" – "широкомасштабные реформы"; "ehtimoliy tazyiqlar" – "потенциальные давления"; "xalqning ma'naviy yetukligi" – "духовное совершенство народа"; "milliy istiqlol" – "национальная независимость"; "strategik yo'nalishlar" – "стратегические направления".

Ma'lumki, siyosiy va davlat hayoti bilan bog'liq tushunchalar ham dinamik jarayon. Bu davlat siyosati va faoliyati bilan bog'liqdir. Hozirda o'zbek siyosiy tiliga yangi tushunchalarni kirib kelishini quyidagi misollarda kuzatish mumkin: “*Obod qishloq*” – “*Прорцветающее село*”; “*Obod mahalla*” – “*Прорцветающая махалля*”; “*Mahalla tizimi*” – “*Система махалли*”; “*Mahalla yettiligi*” – “*Семёрка махалли*”; “*Ijtimoiy himoya*” – “*Социальная защита*”; “*Harakatlar strategiyasi*” – “*Стратегия действий*”; “*Yangi O'zbekiston*” – “*Новый Узбекистан*”; “*Renessans davri*” – “*Период Ренессанса*” va h.k. Ularning gazeta matnida voqelanishiga misollar keltiramiz:

“*Obod mahalla*” va “*Obod qishloq*” dasturlarining samarasini bugun har bir inson o'z hayotida yaqqol his etmoqda”; “*Mahalla tizimi* xodimlari kunini belgilash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi...”; “*Mahalla yettiligi* davlat boshqaruvining aholiga eng yaqin va yakdil tizimi”; “*Harakatlar strategiyasi*” – “*Bu yo'ldagi chora-tadbirlar besh yil oldin 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida boshlangan edi*”;

“O'zbekistonda amalga oshirilayotgan **Taraqqiyot strategiyasi** Fransiya rahbarining islohotlar dasturi bilan yaqinligi, yirik xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda ikki davlat yondashuvlarining o'xshashligi O'zbekiston – Fransiya munosabatlarining yangi darajaga chiqishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga, zamonamizning yangi xavf-xatar va tahdidlariga birgalikda qarshi turishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan **konstruktiv va yaxshi qo'shniçilik munosabatlariga** erishishga qaratilgan mintaqaviy siyosati Fransiya tashqi...” (“Xalq so'zi”. 11.03.2022).

“Shu boisdan, **Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini** amalga oshirishda ham xalq vakillari bo'lgan senator va deputatlar alohida muhim o'rin tutadi”; “Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida xalq bilan muloqot qilishda jamiyat boshqaruvining **tayanch bo'g'ini** bo'lgan...”; “...islohotlar samarasi bevosita aks etadigan **mahalla tizimida** har bir fuqaro murojaatlari bilan ishlashning “**mahallabay**”, “**xonadonbay**” kabi mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etildi”.

“Заслушана информация о регулярном вовлечении населения на основе принципа “**махаллабай**” в концертно-зрелищные мероприятия (“Народное слово”. 16.10.2024).

“... На совещании отмечено, что помощники хокимов должны ежедневно работать с населением, провести в своих махаллях изучения в рамках “железной”, “женской” и “молодёжной” тетрадей и актуализировать данные социального реестра. (yuz.uz. 08.01.2022)

Shuni alohida qayd etish kerakki, ijtimoiy-siyosiy leksikada yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi mamlakatda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqdir. Tilimizda mavjud bo'lgan ba'zi so'z va iboralar terminlashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Masalan, “Bugun iqtisodiyotimizda o'n yil avval tasavvur qilish ham qiyin bo'lgan yangi sohalar paydo bo'ldi va bu jarayon izchil davom etmoqda. **Islohotlarimiz** samarasini bugun eslab qo'ysak va bundan g'ururlansak arziydi. Necha yildirki, O'zbekistondagi ijobiy o'zgarishlar, erishgan yutuqlarimiz chet ellarda ham ovoza bo'lmoqda, xorijliklar tiliga “**O'zbek modeli**” degan ibora tushdi” (“Xalq so'zi”. 04.01.2001).

“Xususan, Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimiz kutayotgan, **Yangi O'zbekiston taraqqiyotini** tezlashtirishga xizmat qiladigan qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, qonun ijodkorligi faoliyatini demokratlashtirish va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan parlament nazoratini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat beriladi”; “O'tgan besh yillikda

Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda xalq hokimiyatchiligi mexanizmlarini kuchaytirish, **davlat hokimiyati tarmoqlari** mustaqilligini ta'minlash va parlamentning rolini yanada oshirish borasida qilingan ishlar o'z samarasini ko'rsatdi".

"Milliy istiqlol g'oyasi har birimizni ana shu kichik jasoratga, hech bo'lmasa, ana shu bunyodkor, jasoratli 1000 likning bittasi bo'lishga chorlamoqda". ("Xalq so'zi".01.01.2004);

*"... ilmiy-pedagogik majmualarni bunyod etish **uzluksiz ta'lim** tizimini rivojlantirishning **strategik yo'nalishlaridan biri bo'lishini ta'kidlab aytgan edilar**" .("Xalq so'zi". 01.01.2004);*

*"...Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi** (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) maqomini belgilash, Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishga va uning O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisining Senati** (bundan buyon matnda Senat deb yuritiladi) hamda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligiga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat". ("Xalq so'zi". 16.12.2004);*

*"Qonunchilik palatasi Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **quyi palatasidir**. Qonunchilik palatasi **saylov okruglari** bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma **deputatdan iborat**". ("Xalq so'zi". 16.12.2004); "Yurtimizda yangi jamiyat barpo etishda biz tanlagan va bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirayotgan **islohotlar modeli** ayni shu kunlarda, ya'ni butun dunyo boshidan kechirayotgan **moliyaviy-iqtisodiy inqiroz** davrida amalda naqadar to'g'ri ekanini va xalqimizning manfaatlariga to'liq javob berayotganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda" ("Xalq so'zi". 29.09.2009).*

Qisqartmalarning gazeta matnida voqelanishiga misollar: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning **NATO** Bosh kotibi Anders Fog Rasmussen bilan uchrashuvi tomonlarning O'zbekiston bilan Alyans o'rtasida **konstruktiv hamkorlikni** rivojlantirish borasida mushtarak manfaatlarga ega ekanini namoyon etdi". ("Xalq so'zi". 20.01.2012) va h.k.

*"ОИС и Узбекистан обсудили **гуманитарный кризис в Афганистане**" (anhor.uz. 23.11.2023).*

*"С этой точки зрения слова «**Новый Узбекистан**» и «**Третий Ренессанс**» гармоничны и созвучны нашей современной жизни. ...В политическом словаре мира появился термин «**Центральноазиатский дух**». ...В жизнь внедряются новые понятия – «**доступное жилье**», «**умный дом**», «**умный город**», «**цифровые услуги**». ...в связи с этим в домах «Меҳрибонлик» и специальных школах-интернатах внедряем новую систему по повышению эффективности учебно-воспитательной работы, а также для реализации надежд и устремлений воспитанников таких учреждений – новый подход на основе «**тетради милосердия**»; «...Согласно документу, с 1 января 2025 года будут введены следующие новые виды туризма: **промышленный туризм ..., геологический туризм..., научный туризм..., военный туризм ..., государственно-управленческий туризм**» (prezident.uz. 17.08.2021).*

Siyosiy diskursda tildagi o'zgarishlarni auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish jurnalistning eng asosiy vazifalaridan biridir. Bunda ularning yangi siyosiy tushunchalar va terminlarning izohiga murojaat qilishi kuzatildi. Ayniqsa, qisqartmalar borasida "Xalq so'zi" gazetasining 2011-yil 25-yanvardagi sonida quyidagi misolga murojaat qilamiz: "O'zbekiston **Yevropa Ittifoqining O'rta Osiyodagi transchegaraviy daryolar** suv zaxiralaridan foydalanish masalalariga oqilona yondashuvini yuksak qadrlaydi. **YI** manfaatdor mamlakatlar, ekologik muvozanatni saqlash hamda transchegaraviy daryolar suv resurslaridan odilona, barqaror va oqilona foydalanish tamoyillariga asoslangan". Ushbu misolda "YI" – "Yevropa Ittifoqi" tashkiloti birinchi marta to'liq shaklda, keyinchalik qisqartma shaklda berilganini kuzatish mumkin.

Gazeta matnida siyosiy diskurs doirasida yangi tushunchalarning voqelanishini dasturlarning nomlanishi misolida ko'rishimiz mumkin: "*Bunda Individual sheriklik dasturi hamda qabul qilinadigan qarorlarni rejalashtirish va tahlil qilish jarayoni doirasidagi hamkorlik, yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollari tarqalishi bilan bog'liq tahdidlarni bartaraf etish, terrorizm va narkotiklarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashishdagi hamkorlikni mustahkamlash bu aloqalarning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan*". ("Xalq so'zi". 20.01.2012) "*Ma'lumki, Isroil armiyasi va "Xamas" harakati o'rtasida davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar gumanitar inqirozni chuqurlashtirmoqda, tinch, begunoh aholi orasida ko'p sonli qurbonlarga olib kelmoqda*" ("Xalq so'zi". 01.11.2023). Стратегия "Узбекистан-2030", отмечается в указе, отображает следующие основные идеи: ... (gazeta.uz. 12.09.2023)

Ma'lumki, tilda mavjud so'zlar uning ma'no tarkibini tashkil qiladi. Mustaqillikdan keyin yangi so'z, ifodalar, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy leksika bilan boyidi va hozirda ham bu jarayon davom etmoqda. Zero, til taraqqiyotida amaldagi tilning o'rniga, yangisini shakllantirishda undagi mavjud variantlari orqali rivojlantirish va mukammallashtirish muhimdir. Shuningdek, biz tahlil qilayotgan yangi so'z va iboralar hozirgacha ishlatilib kelingan. Ammo shuni alohida qayd etish kerakki, ba'zi so'zlar yoki terminlar yangi ma'no kasb etish xususiyatiga ega:

"O'zbekistonda mana shu fazilatning eng yorqin sohiblari ko'ksiga taqish uchun Jasorat medali joriy qilingan. Medal mag'ziga "JASORAT" deb yozilishining hikmati nimada ekan? Balki, bu muhtasham so'zning ma'nolari jasur vatandoshlarimiz, zamona qahramonlarining siymolari orqali ochib berilsa, yanada tiniq ko'rinar?" ("Xalq so'zi". 30.12.2003).

Til ijtimoiy tabaqalanishining tuzilishi ko'p o'lchovli bo'lib, turli kasbiy, demografik, ijtimoiy-madaniy va psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Jamoaning barcha lisoniy resurslaridan tashkil topgan yagona ijtimoiy va kommunikativ tizim doirasida tarkibiy qismlar bir-birini funksional ravishda to'ldiradi. Tizimli munosabatlar ichki tarkibiy xususiyatlar bilan emas, balki aniq ijtimoiy aloqalar bilan belgilanadi. Tahlillar zamonaviy til taraqqiyotiga keng ta'sir qiladigan leksika – ijtimoiy-siyosiy leksika ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumki, til ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'siri ostida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Jamiyat, siyosat va madaniyatdagi o'zgarishlarga javoban yangi so'zlar va ma'noviy tuslar paydo bo'ladi. Buni yuqoridagi misollarda kuzatdik.

Ijtimoiy-siyosiy leksika til taraqqiyotini va undagi yuz berayotgan o'zgarishlarni, umuman olganda, tilning dinamikasi, xilma-xilligi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini aks ettiruvchi muhim unsur hisoblanadi. Shuning bilan birga, siyosat tili jamiyatning barcha darajalarida ijtimoiy va siyosiy kommunikatsiya uchun muhim vosita ekanligini ta'kidlash lozimki, bu ijtimoiy-siyosiy leksika o'zi daxldor sohalaridagi o'zgarishlar natijasida doimiy ravishda yangilanib va kengayib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar natijasida yangi tushunchalar va realiyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan yangi so'z va iboralar paydo bo'lishi tabiiy. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-siyosiy sohada tushunchalarni aniq va ravshan ifodalashga, axborotni yetkazishga yordam beruvchi maxsus leksika qo'llaniladi. Bu axborot almashish va muhim voqealar, qarorlarni tushunish uchun zarurdir. Tilning xalqchilligi uni auditoriya tomonidan oson idrok etishga yordam beradi. Masalan,

"Bugun hech kimga sir emaski, ozodlik va erkinlikka, o'z taqdirini o'z qo'lga olishga intilgan dunyodagi bironta xalq mustaqillik degan ulug' va bebaho ne'matni, siyosiy va iqtisodiy tobelik va qaramlik zanjirlaridan ozod bo'lishni hech qachon osonlik bilan qo'lga kiritgani yo'q" ("Xalq so'zi". 28.12.2010). Ushbu misolda "taqdiri o'z qo'lida" iborasi semantik transformatsiya orqali "o'z taqdirini o'z qo'lga olish" iborasi tarzida berilishi kuzatiladi.

“В народе говорят: “Дорогу осилит идущий”. Главное, мы преодолели самый сложный этап, то есть четко обозначили свой путь и начали большую работу. Теперь должны решительно продолжить курс реформ и довести их до логического завершения”. ...В частности, выдвинули и начали претворять в жизнь идею о том, что у судьи должна быть только одна цель - справедливость, на его устах – только истина, в душе – чистота. ...Как с глубокой болью и сожалением писал наш любимый поэт Абдулла Арипов, «узбеки, разбросанные по миллионам грядок», десятилетиями, согнувшись, собирали хлопок” (president.uz. 17.08.2021).

Ushbu misollarda siyosiy diskursda ekspressiv vositalarning qo‘llanilishi matn ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilishi o‘z ifodasini topgan.

Shunday qilib, siyosiy matn siyosiy ma‘lumotlarni uzatishdagi roldan tashqari auditoriyani ishonitirishda va safarbar qilishda muhim rol o‘ynaydi va o‘zaro siyosiy ta‘sirlarni tahlil qilishda asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2001, 2003, 2004, 2010, 2012, 2021, 2022, 2023, 2024.
2. “Народное слово” gazetasi. 2024.
3. <https://www.anhor.uz>.
4. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/31/strategy-2030/>
5. <https://www.president.uz>.
6. <https://www.yuz.uz>.
7. Бурячок А.А. Формирование социально-политической лексики. – Киев, 1983.
8. Гейко Н.Р. Политический текст как объект перевода. // *Lingua mobilis*, 2013. – № 7 (46).
9. Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий- сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати. // Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 68.
10. Чубукова Е.В. Особенности лексических замен при переводе текстов общественно-политического содержания. // Проблемы истории, культуры, литературы, социально-экономической мысли. – М, 1986. – С. 103.
11. Юсупов А. Ижтимоий-сиёсий матннинг лисоний хусусиятлари. // <https://oliymahad.uz/30334>.